**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**
**BUYRUG'I**

**B U Y R U Q № 304-u**

**Buxoro shahri** **"30" 08 2022 yil**

**Talabalar o'qishini ko'chirish to'g'risida**

Buxoro muhandislik-texnologiya institutining oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash bo'yicha komissiyasining yig'ilish bayonini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 6-7-8-bandiga asosan

**B U Yu R A M A N :**

**1.** Prorektorlar (Sh.M.Xodjiyev, F.T.Gaybullayev, Yu.A.Shukurillayev, M.Z.Sharipov) fakultet dekanlari va bo'lim boshliqlariga: institutning mos va turdosh yo'nalishlari bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish bo'yicha komissiyasining yig'ilish bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Institutning mos va turdosh yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklidan sirtqi ta'lim shakliga o'qishini to'lov-kontrakt asosida ko'chirishga ruxsat berilgan talabalarining ro'yxati 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** O'quv ishlari prorektori (Sh.Hodjiyev) va fakultet dekanlariga: institutining oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash bo'yicha komissiyasi tomonidan:

- o'qishini ko'chirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilgan talabalarga murojaatini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha belgilangan tartibda ma'lumot taqdim qilinsin;

- oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash bo'yicha komissiyasi yig'ilish bayoni institut rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

**4.** Institut hisobxonasi (M.Yodgorov) tomonidan fakultet dekanlari bilan birgalikda 10 kunlik muddatda mazkur buyruqning 1-2-ilovalari asosida o'qishi ko'chirilishi belgilangan talabalar bilan to'lov-kontrakt asosida o'qitish bo'yicha shartnomalar qayta rasmiylashtirilsin.

5. Fakultet dekanlari tomonidan:

- 1 hafta muddatda ushbu buyruqning 1-2-ilovalarida qayd qilingan talabalarni o'qishini ko'chirish belgilangan tartib va muddatlarda darslarga qatnashishiga ruxsat etish haqidagi institut rektorining buyrug'i loyihasi tayyorlansin, bunda o'quv rejalardagi fanlari bo'yicha farqlar aniqlangan talabalar akademik qarzdor sifatida qayd qilinsin;

- talaba tomonidan amalga oshirilgan kontrakt-to'lovi stipendiyasi bo'lgan taqdirda o'rnatilgan tartibda stipendiya berish haqidagi institut rektori buyrug'ining loyihasi tayyorlansin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor Sh.M.Xodjiyev zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash bo'yicha komissiyasi yig'ilish 1-son bayoni.

**Rektor** **N.R.Barakaev**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY va O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI DEVONXONA

NUSXA ASLIGA TO'G'RI